

CHET TILLARDA GAPIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7707397>



ELSEVIER



Received: 07-03-2023

Accepted: 08-03-2023

Published: 22-03-2023

**Nurjon Xudayberganova Nizomaddin qizi**

Urganch davlat universiteti, Xorijiy Filologiya fakulteti nemis tili yonalishi  
3- bosqich talabasi.



**Abstract:** Ushbu maqolada Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchining nutqiy faoliyati kommunikativ kompetensiyani har tomonlama rivojlantirishga asos bo'la olishi haqida, chet tillariga yaratilgan imkoniyatlar haqida so'z boradi.

**Keywords:** chet tillar, faoliyat, o'qitish, o'rgatish, rivojlantirish, shakllantirish, imkoniyat, foydalanish.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

**Nemis tili** (nemischa: *Deutsch*) – Hind-yevropa tillari oilasidagi german tillari guruhiga mansub til hisoblanadi. Hozirgi Nemis tili fonologik tizimida monoftong va diftonglar 45 foizni tashkil etadi (16 unli fonema va 3 diftong); undoshlar tizimi 18 undosh fonema va 2 qorishiq tovushdan iborat. Barcha fonemalar hosil bo'lish o'rni, usuli va talaffuzi jihatidan o'zaro farqdanadi, muayyan o'ziga xosliklarga ega. Gramatik qurilishi analitiksintetik xususiyat bilan ajralib turadi. Mas, otlarda jins va kelishik shakllari, asosan, analitik tarzda, son kategoriyasi esa sintetik tarzda ifodalanadi. Bu holat boshqa so'z turkumlaridagi shakllar ifodasida ham kuzatiladi. Gapning asosiy turi fe'l markazli ran. Yasama, qo'shma fe'llardan ifodalangan kesim qismlarining ran tarkibida distant holatda qo'llanishi Nemis tilining aloqida xususiyati hisoblanadi.

Hozirgi rivojlanib borayotgan mustaqil O'zbekistonimizda chet tillarini o'qitishga qaratilgan e'tibor kundan kunga rivojlanib bormoqda. Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchining nutqiy faoliyati kommunikativ kompetensiyani har tomonlama rivojlantirishga asos bo'la oladi. Ma'lumki, kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Hech kimga sir emaski, mamlakatimiz o'quvchilarining ko'pchiligida chet tillarini o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchli. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, nemis tilini o'rganayotgan to'rt kishidan uchtasi ingliz tilini birinchi xorijiy til sifatida o'rgangan va olingan tajriba, bilim, ko'nikmadan foydalangan holda ikkinchi

chet tiliga o'tilishi va uni o'rganishni osonlashtirishi mumkin. Aynan shunday holatlar maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya olgan o'quvchilarning maktab yoshiga yetib, maktabga qabul qilinganlarida yuz beradi. Bunday hollarda nemis tilini ma'lum darajada o'rganib kelgan o'quvchilarni nemis tili darslariga qiziqtirish uchun ma'lum bir prinsiplarga e'tibor berish lozim.

Hozirgi kunda chet tillarini bilish hayotimizda muhim o'ringa ega. Zamonaviy o'qitish jarayonida turli interfaol usullarga alohida e'tibor beriladi. Zero hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan ham har bitta bilim dargohida o'quvchi-talabalar uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. O'quv xonalarining texnik bazasini boyitish, ularni telekommunikatsiya vositalari bilan ta'minlash esa har qanday chet tilini o'rganishda qo'l keladigan barcha usullardan to'laqonli foydalanishga imkon beradi. Chet tilini, xususan nemis tilini o'rganish usullari xilma-xil, shulardan biri kino mahsulotlarini tomosha qilishdir. Har bir inson individual bo'lib, berilgan ma'lumotni turlicha qabul qiladi: ko'rish orqali, eshitish orqali va hatti-harakatlar yordamida. Voqealarni, odamlarni, joylarni vizual ravishda yodda saqlaydigan insonlar uchun til o'rganishning dastlabki bosqichida filmlar va teleko'rsatuvlar ko'mak beradi. Kino va teledasturlarni tomosha qilish nafaqat foydali mashg'ulot sanaladi, balki bu insonga zavq ham bag'ishlaydi. Bunday materiallardan foydalanishning yana bir e'tiborli jihati shundan iboratki, tillarni o'rganish jarayonida inson tili o'rganilayotgan u yoki bu mamlakatning ijtimoiy, madaniy, hamda lingvistik muhitiga bevosita sho'ng'ib ketadi. Moslashish yo'li bilan o'rganuvchining ko'z o'ngida tabiiy til muhiti bilan tanishish imkoni va kommunikativ muhit yuzaga keladi. [1]

nutq qobiliyatlarini chet tilini o'qitishda ko'maklashadigan muhim ko'nikmalardan biri sifatida tavsiflashdir. Asosiy maqsad- o'z-o'zidan va ravon gapirish uchun, tarjima qilingan tilda to'g'ri qo'llashni o'rganish kerakligini isbotlashdir. Gapirish - bu psixologik va jismoniy jarayonlarni o'z ichiga olgan murakkab faoliyat. O'qituvchi sifatida muvaffaqiyat qozonish uchun, o'quvchilarda tilni qayta ishlash jarayonlarini rivojlantirish kerak. Bu o'quvchilarni birinchi navbatda nutq haqida xabardor qiladi. Sinfda so'zlash uchun doimo vaqt va makon yaratilishi kerak. O'quvchilar suhbatlar va munozaralarga odatlanib, uni tabiiy narsa sifatida qabul qilishlari uchun ma'lum bir tartib paydo bo'lishi kerak, chunki darslikdagi dialoglar suhbatlarni sun'iy ko'rinishga olib keladi. Talabalardan xato qilmasdan gapirishni talab qilmaslik kerak. O'qituvchi sifatida talabalar orasida to'siqlar va qo'rquv bilan gapirmasdan, erkin gapirishga intilish kerak. Shuning uchun har doim ijobiy fikrlar bildirilishi va o'quvchilar rag'batlantirilishi kerak. Fikr-mulohaza erkin bayon etish, tarjima qilingan tilda uni qabul qilish sinfda haqiqiy muloqotni yaratadi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi va ijobiy ish muhitini yaratadi.

Sinfda muloqotni rivojlantirishda iloji boricha tez-tez og'zaki sinovlar o'tkazish kerak. Lug'at va grammatika har doim ham yozma ravishda tekshirilishi shart emas, aksincha ular suhbat vazifasi sifatida tekshirilishi kerak. Nutq qobiliyatini rivojlantirish uchun mashqlarning yagona tipologiyasi mavjud emas. Nutq vositalarining doirasi keng va xilma-xil bo'lishi, o'quvchilar doimo tayyor sintagmalarga ega bo'lishlari kerak. Natijada ular yordamida qiyin suhbat sharoitida ham yo'l topa oladilar. Ilg'or guruhlar uchun iloji boricha simulyatsion, rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish maqsadga muvofiqdir.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Mukarramovna Q. M., Rahmonaliyevna A. G. Nemis Tili Darslarida Enerjayzer Oyinlardan Foydalanish Haqida Ayrim Mulohazalar //Barqarorlik Va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnal. - 2022. - C. 91-93.

2. NEMIS TILI DARSLARIDA XATOLAR BILAN ISHLASH MUAMMOLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR //Integration Of Science, Education And Practice. Scientific-Methodical Journal. - 2022. - T. 3. - №. 3. - C. 304-308.

3. Kuvonov Z. Nemis tili lug'ati tarkibidagi o'zlashmalarning lingvistik va ekstralingvistik mohiyati //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). - 2021. - T. 1. - №. 4. - C. 31-38.